


Suvdagi bioresurslardan foydalanish qonunchiligining nazariy-huquqiy asoslari

Suvdagi bioresurslardan foydalanish bilan bog‘liq masala o‘rganilganda, “Suv fondi yerlari”ning huquqiy maqomi haqida to‘xtalib o‘tish lozim.



O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 77-moddasiga ko‘ra, suv havzalari, daryolar, ko‘llar, suv omborlari, gidrotexnik va boshqa suv xo‘jaligi inshootlari, shuningdek suv havzalari va boshqa suv obyektlarining qirg‘oqlari, suv xo‘jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar suv fondi yerlari toifasiga kiradi[1].

Ta’kidlash lozimki, Yer kodeksida baliqchilik xo‘jaligini yurituvchi jismoniy va yuridik shaxslarga yer ajratish tartibi ko‘rsatilgan emas. Yana shu narsa muhimki, baliqchilik xo‘jaliklarini yurituvchi subyektlar suv fondi yerlaridan foydalanishda qanday huquq va majburiyatlarga egaligi ham qonunchilik(Yer kodeks)da belgilab berilishi lozim.

Mamlakatimiz yer fondi tizimida suv fondi yerlari mustaqil toifani tashkil etadi. Bu toifa yerlar 832,4 ming gektar[2].

Baliqlar, umurtqasizlar, tabiiy sharoitda suvda o‘suvchi (yashovchi) o‘simlik va hayvonlar, suv o‘tlari, suvda yashovchi sut emizuvchilar suvdagi biologik resurslar deb tushunilishini ta’kidlab o‘tish lozim.

Olim M.A.Yuldashov O‘zbekistonning turli tipdagi suv havzalarida baliq mahsuldorligini oshirishning biologik asoslarini o‘rgangan. Uning ta’kidlashicha, “O‘zbekiston baliq zahiralari ham sifat ham, miqdor jihatidan juda nochor. Respublikada baliq 1980-yillardan boshlab ikkita texnologiyaga asoslangan holda yetishtirib kelinmoqda.

Yangi suv omborlari va sizot suvlari to‘planadigan ko‘llardan foydalanilib, ularda boqiladigan baliq mahsuldorligini 10-30 kg.gacha oshirib respublikadagi 550 ming gektarlik suv ombori va sizot suvi ko‘llarida yiliga 10-15 ming tonna baliq etishtirish imkoni bor. O‘zbekiston baliqchilik suv havzalarining fondi taxminan 536 ming gektarni tashkil etadi”[3].

2016-yilda qariyb 3 ming gektar yangi hovuzlar tashkil etilgan, ularda 900 taga yaqin baliqchilikka asoslangan xo‘jalik faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, bu boradagi munosabatlarning norma-

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси 1998 йил, 5-6-сон, 82-модда
[2] Ўзбекистон Республикаси Ер ресурсларининг ҳолати тўғрисида Миллий ҳисобот. Тошкент-2015 й. -15-б.
[3] Юлдашов М.А. Ўзбекистоннинг турли типдаги сув ҳавзаларида балиқ маҳсулдорлигини оширишнинг биологик асослари. Автореф... (DSc). -Т. 2019. -15-б..

tiv-huquqiy asoslari yanada kengaytirildi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining «Baliqchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va «Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlarida to‘g‘risida»gi qarorlari qabul qilindi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar baliqchilik bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv tizimini takomillashtirishga, baliqchilik sohasidagi yuridik shaxslar faoliyatini yanada samarali tashkil etishga turtki beradi.

Baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan yangi metod va texnologiyalarini joriy etish mexanizmlariga yo‘l ochadi.

suv havzalarning berilishi tabiatni muhofaza qilish organlarining bu sohadagi nazoratini cheklab qo‘yadi.

Tabiiy suv havzasini ijaraga olgan shaxslarning baliq ko‘paytirishi va bunga bionazorat organlarining aralashishiga haqqi yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunida baliq ovlash bilan bog‘liq bo‘lgan modda bo‘lib, umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan normalardan iborat.

Chunonchi, baliq va umurtqasiz suv hayvonlarini tutish baliq ovlash deb hisoblanadi. Baliq sanoat, havaskorlik va sport maqsadida ovlanishi mumkin.



Suvdagi bioresurslardan foydalanish «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadimi yoki “Hayvonot dunyosidan foydalanish va uni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun bilanmi?

Bu masalada yuridik adabiyotlarda aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Lekin bu boradagi munosabatlar O‘zbekiston hukumati tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining “Tabiiy suv havza uchastkalarini baliq ovlash xo‘jaliklariga ijaraga berish va Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida bunday munosabatlar ijara asosida tartibga solinishiga oydinlik kiritilgan.

Suvdagi bioresurslardan foydalanishning ijara tartibida ijobiy tomonlar bor albatta. Lekin u tabiiy resurslarning muhofazasi bilan bog‘liq masalalardagi g‘alizliklarni ham yuzaga chiqaradi.

Bu masalani tabiat qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda yechish lozim. Ijara tartibida tabiiy

MDH mamlakatlaridan misol:

Belarus Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunida baliq resurslari bilan bog‘liq qator masalalar o‘z ifodasini topgan (47, 48, 49, 50, 51, 52, 53-moddalar).

Shuningdek, **Tojikiston Respublikasi**ning “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunida baliq resurslari bilan bog‘liq qator masalalar yechilgan (23, 24, 25, 26, 27-moddalar).

Bu qonunlarda baliq resurslaridan foydalanish, ko‘paytirish, uni muhofaza qilish, foydalanish uchun ruxsatnoma berish tartibi bilan bog‘liq masalalar ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, lekin qator huquqiy munosabatlar o‘z ifodasini topgan emas.

Chunonchi, baliq resurslaridan foydalanish huquqini cheklash va foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi normalar bilan bog‘liq masalalar yoritilmagan. “Meditsina normalariga ko‘ra bir kishi bir yilda 10-12 kilogramm baliq iste’mol qilishi lozim. Ba’zi davlatlar aholisi, masalan, fransuzlar yiliga 18 dan 30 kilogrammgacha baliq iste’mol qiladi”.

O‘zbekistondagi sun’iy va tabiiy ko‘llarda baliqchilikni rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar bor. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT) respublikamizdagi muhim baliqchilik xo‘jaligi majmuasi hisoblanadi. Respublikada baliqlarning qariyb 60 foizi shu yerdan tutiladi. Ushbu havza 350 ming gektardan ko‘p maydonni egallaydi. Suv havzasining o‘rtacha chuqurligi 6-8 metr. Bu ko‘llarda 1980-yillardan boshlab baliq mahsuldorligini oshirish bo‘yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilgan[4].



Hozir suvdagi biologik resurslarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik hujjatlarida va yuridik adabiyotlarda “baliq ovlash” tushunchasiga turli ta’riflar berilgan.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi[5] raisining 2006-yil 22-martdagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududida ov va baliq ovlash qoidalarida, eski qonunchilik[6] normasida bo‘lgani kabi «Baliq ovlash — baliq va umurtqasiz suv hayvonlarini tutish» deb ta’riflangan.

Baliq ovlash deganda suvdagi umurtqasiz biologik resurslarni ovlab tutish (ushlash) va baliq hamda boshqa umurtqasiz resurslarni olish (tutish) tushuniladi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, butun dunyoda brakonyerlikka jamiyat va davlatning juda jiddiy muammosi sifatida qaraladi. Bu faoliyat tufayli o‘rmonlar, o‘simlik dunyosi obyektlari, hayvonot dunyosi obyektlari, ekotizimga katta zarar yetadi.

O‘zbekistonning “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunida xalqaro tushuncha hisoblangan “brakonyerlik” (noqonuniy ov qilish) tushunchasiga ta’rif berilmagan. Lekin muhofaza qilish, samarali foydalanish chora-tadbirlari bilan bog‘liq qator masalalar batafsil belgilangan.

Bizningcha, brakonyerlik qoidalarni buzib yovvoyi hayvonlarni ovlash, tutish yoki yo‘q qilish hisoblanadi. Bu tushuncha xalqaro miqyosda keng qo‘llanadi, deyarli barcha davlatlarning qonunchiligida mavjud.

Brakonyerlikni nazorat qilish va unga qarshi kurashning eng samarali usullarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Amaliyot materiallaridan bizga ma’lumki, brakonyerlikni butunlay yo‘q qilish imkonsiz, uni kamaytirish va undan ko‘riladigan zararni qoplash mumkin. Bu boradagi ishlarni samarali amalga oshirish uchun quyidagilarni bajarish lozim: brakonyerlikka qarshi kurash bo‘yicha choralarni ishlab chiqish; nazorat qiluvchi inspektorlar sonini oshirish; barcha ovchilar to‘g‘risida elektron dastur yaratish; brakonyerlik uchun jazoni kuchaytirish; amaldagi “Ov qilish va baliq ovlash qoidalari”ni takomillashtirish kerak.


Ta’kidlash lozimki, brakonyerlik bilan bog‘liq masalada 2019-yil 28-maydagi qonunchilikka[7] kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga ko‘ra jazo choralari oshirildi, ya’ni jarima ko‘tarildi. Shuningdek, MJtKga “ov qilish va baliq ovlashning taqiqlangan qurollarini yoki vositalarini tayyorlash, olib kirish, saqlash, tashish yoki yuborish, olish yoxud sotish” bilan bog‘liq yangi modda kiritildi.

2016–2020-yillar davomida biologik resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasi bo‘yicha milliy qonunchilik hujjatlariga juda katta o‘zgarishlar kiritildi, 100 dan ortiq yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

“Ov va baliq ovlash qoidalari” asoslangan Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 28-oktyabrdagi 508-qarori bekor bo‘lganiga 6 yil bo‘ldi. Lekin “Ov va baliq ovlash qoidalari” yangi tahrirda qabul qilinmagan. Uni yangi tahrirda ishlab chiqish kerak.

Xorijiy davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlarida suvdagi biologik resurslarni tutish, ovlash, biologik resurslar obyekti xususiyatlari, bu boradagi qonunchilik samarali ishlashi uchun ijobiy tavsiflari mavjud.

[4] Юлдашов М.А. Ўзбекистоннинг турли типдаги сув ҳавзаларида балиқ маҳсулдорлигини оширишнинг биологик асослари. Автореф (DSc). –Т. 2019. Б.12.
[5] 2017 йилдан эътиборан Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси.
[6] 1997 йил 26 декабрда қабул қилинган. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида»ги қонуни.
[7] Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами 2019 йил 3 июнь, 22-сон, 403-модда.



Bunday ijobiy tajribalar nafaqat O‘zbekiston ekologik qonunchiligini takomillashtirishda, balki suvdagi biologik resurslarni noqonuniy ovlashning oldini olishda ham qo‘l keladi.

Ko‘pgina **Yevropa** mamlakatlarida qonunlar, nizomlar, farmonlar XIX asrning o‘rtalaridan boshlab ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Bu boradagi munosabatlarning tartibga solinishi mamlakat bo‘ylab dengiz ovi uchun mustahkam huquqiy asos yaratgan.

Yevropa va **Shimoliy Amerika** davlatlarining qonunlarida o‘z fuqarolarining turli suvlarda baliq tutish erkinligi belgilangan, o‘sha davrda bir qator istisnolar mavjud bo‘lgan. Masalan, **Shvetsiya**da jamoat baliq ovlash tushunchasi bo‘lib, unga ko‘ra, jamoat, okrug, cherkov, ushbu hududlarda yashovchi har bir fuqaro baliq ovlash huquqiga ega edi. **AQSh** va **Kanada**da baliqchilikni ijaraga berish amaliyoti mavjud.

Xususiy tadbirkorlar suv havzalarini turli davrlarda vakolatli idoralar yoki mahalliy hokimiyat idoralari orqali olishadi. Baliq ovlash joyi, vaqti, baliq ovlash usuli, himoya talablari bo‘yicha har xil taqiq va cheklovlar tizimi mavjud.

Baliq ovlashda taqiqlangan vaqt, taqiqlangan joy, taqiqlangan ov qurollar belgilangan.

Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida baliq ovlash idoralari tomonidan baliq ovlash qoidalari bosqichma-bosqich o‘rnatildi. Nazoratni davlat, ba’zan jamoat inspektorlari va nazoratchilari olib bordi. Qoidabuzarliklar uchun jarimalar (ba’zan qamoq jazosi) qo‘llanildi. Baliqchilikni boshqarishning boshqa elementlari paydo bo‘ldi (turli xil baliq ovlash komissiya va qo‘mitalari). Ushbu mamlakatlarda dengiz biologik jamiyatlari vujudga kelgan va bu ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish imkonini beradi.

AQShda suv biologik resurslari to‘g‘risidagi qonunchilik XX asrning o‘rtalaridan boshlab rivojlandi. Ya’ni «Baliq va yovvoyi hayvonlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Baliqning anadrom turlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Dengiz sut emizuvchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Kontinental shelfning baliq resurslari to‘g‘risida”gi, “Baliq resurslarini saqlash va ularni boshqarish to‘g‘risida»gi qonunlar ketma-ket qabul qilindi. Federal darajada nazorat qilinadigan maxsus baliqchilikni boshqarish zonalarini yaratish tartibi, shuningdek davlat tomonidan muhofaza qilinadigan hayvonlar turlarining ro‘yxatlari bir vaqtning o‘zida aniqlandi.

AQSh baliqchilik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va boshqarishda «Baliqchilik to‘g‘risida»gi qonun muhim ahamiyatga ega. Ba’zi masalalar davlat darajasida hal qilinmoqda. Ularda taqiq, cheklov, karantinlar har xil tabiiy resurslar uchun tegishli bo‘ladi. Masalan, Indianada baliq ovlash uchun boshqa shtatlardan tirik yem olib kirishni taqiqlovchi qonun qabul qilindi. Chunki bu yirtqich baliqlarning yangi turlari paydo bo‘lishiga va mahalliy zotlarning qirilishiga olib kelishi mumkin. Bu xatti-harakat ekologik huquqbuzarlik hisoblanib, jinoiy javobgarlikni ko‘zda tutadi.

Kanadada baliqchilikni tartibga solish uchun shartnoma va litsenziyalash usullari, tartibi o‘rnatilgan. Ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga solish federal va viloyat darajasida amalga oshiriladi. Baliqchilik va dengiz resurslari vazirligi tizimiga baliq ovi

[8] Ҳозир Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси.

boʻyicha xodimlar, baliq ovi qoʻriqchilari, inspektorlar kiradi.

Ularga huquqbuzarlik subyektini hibsga olish va qayiqlarni ushlab turish kabi vakolatlar berilgan.

Buyuk Britaniyada 1967-yilda "Dengiz baliq boyliklarining himoyasi toʻgʻrisida"gi qonun qabul qilindi. 1981-yilda u "Baliqchilik toʻgʻrisida"gi qonun bilan almashtirildi. Yangi oʻzgartirishlar bilan boyitildi. Jumladan, dengiz baliq ovlash sanoatini tashkil etish, baliqchilik, baliq ovlash va uni yetishtirish floti faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va tartibga solish bilan bogʻliq normalar kiritildi. Bundan tashqari, sun'iy yoʻl bilan baliq yetishtirish va ushbu tadbirlarni moliyalashtirish qoidalari oʻrnatildi.

Fransiya suv qonunchiligiga binoan esa baliq ovlash suvdan foydalanishning izolyatsiya qilingan shakli hisoblanadi. Fransiya Qishloq xoʻjaligi kodeksida koʻzda tutilgan baliq ovi zaxiralari suv zonalari va atrofdagi hududlarni oʻz ichiga oladi. Davlatga qarashli suv havzasidan foydalanish uchun imtiyoz berish mexanizmi qoʻllaniladi.

Yevropa qonunlari tirik dengiz resurslaridan foydalanish va himoya qilishni tartibga soladi. Bundan tashqari, Yevropa qonun hujjatlari, qoida tariqasida, keng huquqiy tartibga solish obyektiga ega va har xil tabiiy tovarlarni qamrab oladi. Masalan, Yevropa kengashining 1992-yil 21-maydagi "Tabiiy yashash joylari va yovvoyi oʻsimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish toʻgʻrisida"gi direktivasi Yevropa ittifoqiga a'zo davlatlar bu boradagi normativ-huquqiy me'yorlarni qabul qilishi shart.

MDH davlatlarida ham baliqchilik sohasini huquqiy tartibga solish davom etmoqda. Masalan, Ozarbayjonning 1998-yil 27-martdagi "Baliqchilikni boshqarish toʻgʻrisida"gi qonunida baliqlarni himoya qilish, baliq yetishtirish, baliq ovlash va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish, boshqaruv funksiyalari tartibi va normalari oʻz ifodasini topgan.

Oʻzbekistonda bunday normalar hukumat qarorlarida tarqoq holda berilgan.

MDH davlatlarining qonunchiligi suveren davlatning hududiy suvlarida chet elliklarning mavjudligi masalasini turlicha hal qiladi. Masalan, **Ozarbayjon** qonunchiligiga muvofiq xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari baliq zaxiralaridan mamlakatning suv havzalarida foydalanishlari mumkin. Chet davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari Ozarbayjonning baliq zaxiralaridan foydalanish huquqini qonunda belgilangan tartibda oladi.

Ozarbayjonda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan baliq zaxiralaridan foydalanish huquqi va qoidalari ijro etuvchi hokimiyat tomonidan belgilanadi. Oʻzbekiston qonunchiligiga muvofiq xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari suv havzalarida baliq zaxiralaridan foydalanishlari mumkinligi haqidagi norma Yer kodeksining suv fondi yerlaridan foydalanish tartibida belgilangan emas.

Ekologiya huquqi nazariyasiga koʻra, baliqchilikda sanoat, gumanitar, havaskorlik, sport va an'anaviy baliq ovlash turlari mavjud esa-da, normativ-huquqiy hujjatlarda bu masala juda tarqoq holda oʻz aksini topgan.

Demak, suvdagi bioresurslardan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan aniq va maxsus qonun qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha, u «Suvdagi biologik resurslarni muhofaza qilish va baliqchilik toʻgʻrisida»gi qonun deb nomlanishi lozim.

Unda quyidagi holatlar aks etishi kerak. Jumladan, **birinchi boʻlimi** umumiy qoidalar deb nomlanishi va unda qonuniy tartibga solingan munosabatlar, asosiy tushunchalar, mulkchilik masalasi;

ikkinchi boʻlimda suvdagi bioresurslar va baliqlardan foydalanishda davlat boshqaruvi, Vazirlar Mahkamasining bu sohadagi vakolatlari, mahalliy hokimiyat organlarining baliq resurslaridan foydalanish sohasidagi vakolatlari;

uchinchi boʻlimda suvdagi bioresurslardan foydalanish turlari, foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, baliq ovlash qoidalari, suvdagi bioresurslardan foydalanish huquqini cheklash;

toʻrtinchi boʻlimda suvdagi bioresurslarini muhofaza qilishda davlatning tutgan oʻrni bilan bogʻliq masalalar oʻz ifodasini topishi lozim;

beshinchi boʻlim yakuniy qoidalar deb nomlanib, unda bu borada kelib chiqadigan nizolarni tartibga solish bilan bogʻliq masalalar oʻz ifodasini topishi zarur.

Olim NARZULLAEV,
yuridik fanlar doktori